



O'ZBEK TILINING LAHJA VA SHEVALARI

Abdurafova Nilufar Xurshidjon qizi

Qo'qon davlat universiteti,
Boshlang'ich va texnologik ta'lim fakulteti
1-bosqich talabasi

Usmonova Sofiyaxon Alimovna

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18899874>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimiy tarixga ega bo'lgan o'zbek tilining hududiy shakllari - lahja va shevalar haqida fikr yuritilgan.

Jumladan, Qo'qon shahri va unga yaqin bo'lgan qishloqlarning shevasidagi leksik, fonetik, morfologik xususiyatlari ham muhokama qilinadi. Ilmiy izlanish va hayotiy kuzatishlar natijasida ushbu hududiy nutq shaklining adabiy til bilan o'zaro o'xshash va farqli tomonlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: adabiy til, o'zbek tili, lahja, sheva, Qo'qon shevasi, leksik, fonetik, morfologik.

Ma'lumki, dunyo tillari orasida eng qadimgi tillardan biri bizning o'zbek tilimiz hisoblanadi va u turkiy tillar oilasiga kiradi. O'zbek xalqining milliy adabiy tili – o'zbek tili, uning bir-biridan ayrim xususiyatlari bilan farqlanib turadigan lahjalari hamda ko'plab katta-kichik shevalari mavjud.


Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, matbuotlar adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari ham adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy til shu tilda so'zlashadigan barcha fuqarolar uchun tushunarli bo'ladi va har doim olim-u mutaxassislar tomonidan ishlov berilib, mukammallashtirilib boriladi. Qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik guruhi lahja deyiladi. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular quyidagilar:

1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi - o'zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug'-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar guruhi.

Keldi, otamni, ot, tog', chumchuq, sog', sariq, ertak, o't, yozayapti, tuz, ona, yomg'ir kabi so'zlar ushbu lahjaga mansub.

2. Qipchoq lahjasi - o'zbek tilining qipchoq urug' va qabila asosida shakllangan. Bu lahjada undosh tovushlardan y-j kabi, t-d kabi talaffuz qilinadi. Jur, jazyotir, o'qijatir, aad, dag' va elay, oka, sov so'zlari ham shu lahjaga misol bo'la oladi.

3. O'g'uz lahjasi - o'zbek tilining o'g'uz urug' va qabila negizida shakllangan.





Ushbu lahjadagi soʻzlardan gildi, adamni, taka, secha, sari, opa, jamgir soʻzlarini misol qilish mumkin.

Biror tilning oʻziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik maskanga oid qismi sheva deb ataladi. Sheva ham adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi va vazifasi — Qoʻqon shahri hamda unga yaqin qishloqlar shevasining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini aniqlash va ularni adabiy til bilan qiyoslab tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda adabiy oʻzbek tili va Qoʻqon sheva soʻzlari oʻrtasidagi farqlar tahlil qilindi. Maʼlumot manbai sifatida adabiy matnlar, shevashunoslikka oid ilmiy maqolalar hamda mahalliy aholining nutqidan olingan sheva soʻzlaridan foydalanildi.

Maʼlumotlarni tahlil qilish mobaynida har bir sheva soʻzi fonetik, leksik va morfologik xususiyatlar boʻyicha adabiy til soʻzlari bilan qiyoslandi. Shu orqali soʻzlarning talaffuzi, maʼnosi va qoʻllanilishidagi farqlar izohlar bilan aniqlandi. Tadqiqotda taqqoslash usulidan foydalanildi: adabiy til va sheva soʻzlariga misollar keltirildi hamda tahlil qilindi.

Qoʻqon shevasi, asosan, Fargʻona vodiysida va shaharning oʻzida qoʻllanadi. Quyida Qoʻqon va unga yaqin qishloqlarning shevasidagi fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini adabiy til bilan solishtirib koʻramiz.

Fonetik xususiyatlari:

Oʻgʻil soʻzidagi oʻ unlisi talaffuzda "u" ga oʻzgaradi (ugʻil).

Opa soʻzida o unlisi "a" ga oʻzgaradi (apa).

Kelibdi soʻzida b va d tovushlarining jarangsizlanishi kuzatiladi va soʻz ohiridagi "i" unlisi tushib qoladi (kelipt).

Togʻ soʻzida gʻ tovushining tushib qolishi yoki yumshashi kuzatiladi (to).

Dada soʻzining boshidagi d tovushi tushib qoladi (ada).

Toshkent soʻzida e unli "o" unlisiga oʻzgaradi va soʻz ohiridagi "t" tovushi ham tushib qoladi (Toshkon).

Sigir soʻzida g tovushi oʻrniga "y" aytiladi (siyir).

Leksik xususiyatlari:

Juda katta soʻzini "kattakon" deb aytiladi. Masalan, qishlogʻimizga bolalar uchun kattakon kutubxona qurilmoqda.

Koʻp, juda degan maʼnoda "yomon" soʻzi ishlatiladi. Masalan, shu qiz hamma fanlardan imtihonlarni yomon zoʻr topshirdi.

Mehmonga bormoq soʻzi esa, "qidirmoq" deb aytiladi. Masalan, biz bugun buvimlarnikiga qidiramiz.





Ovqatni taqsimlash soʻzidagi taqsimlash "suzish" deb aytiladi. Masalan, onam ovqatni suzib keldi va menga uzatdi.

Bu yoqqa kel koʻrsatish olmoshi "baqa kel" tarzida aytiladi. Shuningdek, oʻsha yer-oʻshat, oʻshet; qayerda-qatta, qetta; mana bu olmoshi "monovi, monov" kabi aytiladi.

Morfologik xususiyatlari:

Qilyapti fe'lida, -yapti qoʻshimchasi, -votti deb aytiladi (qilvotti). Bu xususiyat shu kabi barcha fe'llarda kuzatiladi.

Bolalar soʻzidagi "o" unlisi talaffuzda "a" tarzida va koʻplik qoʻshimchasi -lar ham -la deb aytiladi (balla).

Olib keldi soʻzi "obkeldi" tarzida aytiladi; aytib yubordi fe'lidagi "aytib" da "-ib" qoʻshimchasi tushib qoladi, "yuboribdi" soʻzi boshidagi "yu" tushib qoladi va "b" tovushi "v" tarzida aytiladi (aytvoribdi).

Qoʻqon shevasida "shakarob" soʻzi pomidor va piyoz aralashtirib tayyorlanadigan salat, achchiq-chuchukni bildiradi. Bu salatni osh bilan qoʻshib isteʼmol qilish odat boʻlib qolgan. Shu kabi yana bir qancha soʻzlar mavjud, masalan, "koʻk choy" oq choy deb nomlanadi. Bunga choy rangining och ekanligi sabab boʻlgan. Maʼlumki, oʻzbek xalqi oq soʻzini nafaqat oq rangga, balki och rangga nisbatan ham qoʻllaydi. Masalan, oppoq qiz deganimizda qizning rangi oq emas, bugʻdoy rangdan ochroq. Qora odam qoʻllanishida esa bugʻdoy rangdan toʻqroq. Xuddi shu holat choyga ham oʻtgan. Och rangli choyni oq choy, toʻqrogʻini esa adabiy tilda qora choy deb ataymiz. Lekin, qora choy Qoʻqon shevasida pamil choy deb nomlanadi.

Shuningdek, Qoʻqon va uning atrofida, ovqat tanlab yeydiganlarni-chimsa; non yopishda va uzishda ishlatiladigan buyumni-yengicha; toʻy-marakalarda choy qaynatuvchilarni-bokchi; Jinday, jindek, oz soʻzlari-jichcha; bolalar yozda koʻp ishlatadigan "choʻmilmoq" soʻzi-hoʻpitmoq tarzida; amakining ayoliga nisbatan-opoqaya, opoqbuvi kabi qoʻllanuvchi soʻzlar ham mavjud.

Bunday misollarni yana koʻplab keltirishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqotda oʻzbek tilining lahja va shevalaridagi leksik xususiyatlar oʻrganildi. Ilmiy tadqiqot, hayotiy kuzatish va tahlillar natijasi shuni koʻrsatdiki, oʻzbek tili soʻzga boy va unda shevalarning ham oʻrni beqiyosdir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, oʻzbek shevalari hamda Qoʻqon shevasi hozirgi zamonaviylashib borayotgan davrimizda ham oʻz qadimiyligi va soʻzlarga boyligini saqlab qolayotgan shevalardan biridir. Oʻzbek tilida sheva hamda lahjalar milliy tilimizning tarixiy shakllari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. H. Jamolxonov "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" - Toshkent: Talqin-2005;





- 2.Hozirgi o'zbek adabiy tili - "O'qituvchi" NMIU,Toshkent-2006;
- 3.S.Ashirboyev "O'zbek dialektologiyasi" - Toshkent-2013;
- 4.Y.Saidov "O'zbek adabiy tili tarixi" - Buxoro-2019;
- 5."O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot,metodologiya va yangicha yondashuv" mavzusidagi II Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari - Toshkent-2022;
- 6.Sh.Nosirov "O'zbek tilining Qo'qon shevasi" - Toshkent-1980;
- 7.<https://t.me/shevashunos>.

